

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Dilafroʻz AmonovaSamarqand davlat chet tillar
insituti tayanch doktoranti
(dilya@outlook.kr)

KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069224>

ANNOTATSIYA

Koreys adabiyotida ayol yozuvchilar ijodiyoti milliy adabiyotning ajralmas bir boʻlagi hisoblanadi. Koreys adabiyoti yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlansa, unda nazm, nasr, dramaturgiya sohasidagi izlanishlarda duch kelish mumkin. Ularning barchasida ayol obrazi va uning oʻziga xos olami mavjud. Mazkur maqolada aynan koreys ayollar adabiyoti va bu adabiyot vakilalari haqida maʼlumotlar berilgan. Ayol ruhiyati, uning oila va jamiyatdagi oʻrni, hayotning global masalalariga munosabatiga doir tabiatiga doir kuzatishlar ijodkor olamini va uning ruhiyatini aniqlash asnosida turli-tuman badiiy usullar vositasida va yoʻsinlar bilan boyib borganligi asoslanilgan. Ayol ijodiy barkamolligini yuzaga chiqaruvchi ruhiy tovlanishlar va ularning obrazlarning ruhiy kechinmalari bilan bogʻliq holdagi jarayonlarninig tahlili va unga munosabat aks ettirilgan.

Kalit soʻzlar: milliy adabiyot, madaniyat, ayollar adabiyoti, ruhiy tasvir, global masalalar, obraz, obrazlilik, nazm, nasr, dramaturgiya, janr, adabiy jarayon.

Дилафруз Амонова(Докторант Самаркандского государственного
института иностранных языков)
(dilya@outlook.kr)

ЖЕНСКОЕ ТВОРЧЕСТВО В ИСТОРИИ КОРЕЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

АННОТАЦИЯ

Творчество женщин-писательниц в корейской литературе является неотъемлемой частью национальной литературы. Если обратиться к исследованиям, посвящённым корейской литературе, можно увидеть, что в них рассматриваются поэзия, проза, драматургия. Во всех этих направлениях присутствует образ женщины и её уникальный внутренний мир. В данной статье представлена информация именно о корейской женской литературе и её представительницах. Исследуются женская психология, её роль в семье и обществе, отношение к глобальным вопросам жизни, а также обосновано, как мир писательницы и её душевное состояние обогащаются посредством различных художественных приёмов и методов. Также рассматриваются душевные переживания, раскрывающие творческое совершенство женщины, и их взаимосвязь с внутренними переживаниями литературных персонажей.

Dilafruz Amonova

(Doctoral student at Samarkand State Institute
of Foreign Languages) (dilya@outlook.kr)

WOMEN'S CREATIVITY IN THE HISTORY OF KOREAN LITERATURE

ABSTRACT

The creativity of women writers in Korean literature is an integral part of the national literary tradition. A review of research on Korean literature reveals studies in poetry, prose, and drama. In all these genres, the image of a woman and her unique inner world are present. This article provides information specifically about Korean women's literature and its representatives. It examines female psychology, the role of women in the family and society, and their attitude toward global life issues. The study substantiates how the world of a female writer and her emotional state are enriched through various artistic techniques and methods. It also explores the emotional experiences that shape a woman's creative perfection and their connection to the inner experiences of literary characters.

Keywords: national literature, culture, women's literature, psychological portrayal, global issues, image, imagery, poetry, prose, drama, genre, literary process.

Koreys adabiyoti va madaniyatida ayol yozuvchilar o'z asarlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy masalalarni yoritishda muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, adabiyot tarixi zarvaraqalarida o'z nomini qoldira olgan ayollar har koreys millati vakillarining yorqin ijodkorligidan dalolat beradi. Koreys mumtoz adabiyotida qirolicha Soxe, Sin Saidman, Xvan Jin, Xo Nonsorxon, qirolicha Xongyon singari adibalar uchun kelsak, XX asr koreya adabiyoti vakillari sifatida Kyonni Pak, Kan Kyonni, Kon Sonok, Pak Vanso, Cho Nam Ju, Cho Xe Jin, Xan Gan, Na Xe Sok singari ijodkorlar badiiy adabiyot sahifalarini yangi ijod namunasi bilan boyitayotganligi va zamonaviy adabiyotni yaratayotganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Koreya adabiyoti tarixiga nazar tashlansa, unda ijodkor ayollar va ular yaratgan asarlar haqida ma'lumotlarga uch kelish mumkin. Ijodkor ayollar tomonidan hatto janrlar ham yaratilganligi bugunda hech kimga sir emas. Bu haqda M.Xalova o'zining "Hozirgi o'zbek ayollar she'riyatida qalb tasviri va talqini" tadqiqotida quyigacha ma'lumot beradi: "Koreya adabiyotiga e'tibor qaratilsa, unda hatto XV asrdayoq faqat ayollarga xos bo'lgan janr "**akmil**" yuzaga keladi. Bu ham mumtoz adabiyot namunalarida ayollarning ijodkorligidan dalolat beradi. Umuman, Koreya adabiyotida qirolicha Soxe ham ijod bilan mashg'ul bo'lganligi ayni haqiqatdir. Qirol Sindjonning onasi qirolicha Soxe (1437-1504) "Ayollarga nasihat" asarini yaratgan. Bu asar koreyadagi ilk ayol ijodkorligi edi. U konfutsiy ta'limoti asosida ayollarga she'riy yo'l bilan o'z maslahatlarini berishga intilgan [5,28].

Koreys adabiyotidagi yana bir ijodkor Sin Saidman (1504-1551) bo'lib, u nafaqat shoir sifatida nom qozona oldi, balki koreys yozuvi, koligrafiyasi, she'rshunosligi, musavvir sifatida ham shuhrat qozondi, u o'z davrining yetuk faylasufi Li Ining onasi bo'lib, bizgacha, undan "**xanmun**" janrida ikki she'r yetib kelgandir. Jamiyat hayotida muhim o'rin tutganligi bois bu ijodkor ayolning surati bugungi kunda Janubiy Koreyaning 50000 kupyurasi hamda 5000 kupyurasida aks etgandir. Ushbu ijodkorlardan tashqari Xvan Djini (1506-1554), Xo Nonsorxon (1563-1589), qirolicha Xongyon (1735-1836) singari adibalar ham ijod etishganki, ularning asarlarida o'z hayotini o'zgartira olmagan ayol ruhiyati aks etadi" [7]. Biroq koreys ayollar adabiyoti mana shu yuqorida ta'kidlangan adibalar ijodi bilan boshlanmaydi. Balki eramizdan oldingi I asrlarda XANMUN bilan bog'lasak to'g'riroq bo'ladi. Bizgacha bu janrda ayollar tomonidan ijod etilgan asarlar yetib kelgan. Shu bilan bir qatorda XYANGA janri ham ayollar ruhiyatini anglatuvchi xususiyatga ega. Chunki bu janr VI-VII asrlarda Koreyada paydo bo'lgan bo'lib, qo'shiq janri sanaladi. Koreys ayollari o'z dardu alamlari, hasratlarini mana shu janr orqali kuylaganlar. Shuni ham ta'kidlash joizki, qirol Sado otasi tomonidan qatl etilganidan so'ng qirolicha bu azobga dosh berish maqsadida o'g'liga bag'ishlab qo'shiq yaratadi. Keyinchalik bu qo'shiq xalq orasida ommalashadi.

Koreys ayollar adabiyoti haqida soʻz ketganda, avvalo, XIX asr oxiri va XX asr bilan bogʻlash zarur. Bu davrda, koreys adibalar ijodiyoti jahon adabiyoti arenalarida mustahkam oʻrin egallay boshladi. XX asr boshlarida koʻp darajada ijodkor ayollarni uchratmasak-da, biroq asr oxirlariga kelibgina, ular oʻz ijodlari bilan dunyo ahlini lol qoldira oldilar.

Li Sa Yunning tadqiqotlariga nazar tashlasak, unda XX asr adabiyotida ayollar ijodini Pak Vanso, Sin Kyonsuk, va In Xigyon nasri asosida oʻrganishga intilganligiga guvohi boʻlamiz. Uning yozishicha: “Koreya Respublikasida ayollar tomonidan yozilgan asarlar “ayollar adabiyoti”ni “Yeson munxak” nomli maxsus adabiyotiga ajratilgan. Bu atama ayollar muammosini ifoda etib, u bilan bogʻliq muammolarni anglatadigan hamda dunyoga alohida “ayollik” nuqtai nazariga ega boʻlgan nasr deb qaraladi. Anʼanaga koʻra, koreys ayol yozuvchilari “ayol yozuvchi” deb ataladigan “Yeryuchak”da ijod etishadi (ular yozuvchi soʻzi faqat erkak ijodkorlariga nisbatan qoʻllaniladi). Ularning dunyo haqidagi qarashlari, isteʼdodi va oʻziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Ayol ijodkorlar turli janrlarda qalam tebratishadi, biroq ularning ijodida hikoya alohida oʻrin tutadi”[3,3]. Li Sa Yun toʻgʻri taʼkidlaganidek, ayollar ijodkorligida “Yeson munxak” atamasi qoʻllaniladi. Bu haqda Li Tekchi ham oʻz tadqiqotlarida maʼlumot beradi [4,240]. Demak, koreys adabiyotida ayol ijodkori har doim tadqiqotchilar markazida turgan. Ularning ijodi boʻyicha oʻz xulosalarini berib borishgan. Biroq, oʻzbek adabiy jarayoniga eʼtibor qaratilsa, unda XX asr koreys adabiyoti toʻlaonli oʻz ifodasini topmagan. Bu qarashlarimizni kengroq berish maqsadida ijokorlar biografiyasiga murojaat etamiz. Chunki bugungi kungacha koreys adabiyoti yuzasidan biror bir antologiya yaratilgani yoʻq. Yoki ijodkorlarning biografiyasi boʻyicha biror yerik tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. Mazkur masalaga oydinlik kiritish uchun ularning boiografiyasiga ham toʻxtalib oʻtamiz.

Koreys adabiyotining vakillaridan **Kan Kyon Edir**. U 1907-yilda Koreyaning Xvanxedo tumanida oddiy xizmatkor oilasida tugʻiladi. 5 yoshida otasi vafot etganligi bois onasi Kan Kyon Eni olib shaharga koʻchib oʻtadi. Shu yerda 3 farzandning bor boʻlgan kishi bilan oila quradi. Kanni qizlarni taʼim-tarbiyasi bilan shugʻullanuvchi katoliklar maktabiga berishadi. Biroq bu maktabning qatʼiy intizomini buzganligi bois maktabdan haydaladi. Keyinchalik Pxinyandagi qizlarning oʻrta maktabini tugatadi. Yoshligidan “Chxunchxyan haqida ertak” asarini mutolaa etishi, adabiyotga boʻlgan qiziqishini oshirgan edi. Kan Kyon E oila qurganidan soʻng bolalar tarbiyasi bilan shugʻullana boshladi. Biroq bu yetti yil mobaynida ijod etishdan toʻxtamadi. 1938-yilda Koreys tilida ijod etish man etilganidan soʻng ijodiy faoliyatini yakunlashga majbur boʻldi. Biroq koreys kitobxonlariga “Qizlar va onalar” (1931), “Insoniyat muammosi” (1934) romanlarini, “Tuz” (1934), “Yerosti qishlogʻi” (1936) qissalarini, “Otlar va oʻgʻillar” (1931-32), “Bu - ayol” (1931-32), “Poliz” (1933), “Zulmat” (1937), “Giyohvand” (1938) hikoyalarini taqdim etadi [8].

Koreys adabiyotida oʻz oʻrni va uslubiga ega boʻlgan yana bir ijodkor **Pak Kyong Ni** (Pak Kyonri, Bak Kyonri) hisoblanadi. U 1926-yilda janubiy Koreyaning Teei (bugunda Thonyongga deb nomlanadi) viloyatida tavallud topadi. Uning oilasi oʻrta hol sinfdan boʻlib, tez-tez janjallar kutarilar edi. Natijada, Pak Kyonnini otasiga qoldirib, onasi oilasidan chiqib ketadi. Bu esa yosh bolaning murgʻak qalbida bitmas-tuanmas jarohat qoldiradi. Keyinchalik bu haqda oʻzi onasini tushunishi, biroq undan nafratlanishi haqida gapirib oʻtadi. 1946-yilda Chenju qizlar maktabini tugatgach oila qurdi. Uning turmush oʻrtogʻi kommunistik tuzumni yoqlaydi, Koreya urushi paytida bedarak yoʻqoladi va oxir-oqibat Sodemun qamoqxonasida vafot etadi. Shu yili adiba nafaqat turmush oʻrtogʻidan, balki uch yoshli oʻgʻildan ham ajraladi. Biroq uni taqdir siylamadi. Saraton kasalligi bilan ogʻrigan Pak Kyon nabirasini voyaga yetkazish majburiyatini oladi. Chunki uning kuyovi, shoir Kim Ji ham kommunist sifatida qamoqqa olinadi. Hayotning ogʻir zarbalari yana bir kulfatni keltiradi. Pak Kyong Ni dastlab kukrak saratoni bilan ogʻrigan boʻlsa, keyinchalik oʻpka saratoni bilan aziyat chekadi. Shunga qaramay u ijod etish zavqidan voz kechmadi. Umr davomida ijodkor maʼsuliyati bilan hamnafas yashadi. U yozuvchi sifatida oʻz faoliyatini “Hisob-kitoblar” (계산, Gyesan) hikoyasi bilan boshladi. Bu asar 1855-yilda yaratilgan boʻlsa-da, 1958-yilda unga mazkur asari uchun “Zamonaviy adabiyot” jurnali oʻzining mukofotini taqdim etdi. Keyinchalik u avtobiografik xususiyatga ega boʻlgan “Ishonchizlik vaqti” (불신 시 jurnali 대), “Zulmat davri” kabi romanlarini oʻz oʻquvchilariga taqdim etdi. Mazkur romanlarda turmush oʻrtogʻi hamda oʻgʻildan

ajralgan ayol bosh obraz sifatida talqin etildi. Adiba “Dorishunos Kimning qizlari” (김 약국의 딸들) asarini yaratdi. Pak Kyon Ni ushbu asarida ham ayolni bosh obraz sifatida taqdim etadi. U yaratgan obrazlar qiyinchiliklarni o‘z zimmasiga oladigan, qiyinchiliklar oldida ojiz va notavon kimsa emas, ularni yengishga qodir shaxs sifatida tasvirlaydi. Biroq adibani mashhurlik pillapoyalariga olib chiqqan asari “Yer” romani hisoblanadi. Bu asar 1969-yil sentabr oyidan boshlab “Modern Literature” jurnalida seriyali nashr etila boshlanadi. Bu asarni yakunlash uchun Pak Kyon Niga naqd 25 yil kerak bo‘ldi. Asarning bosh g‘oyasi Koreya xalqning erk, ozodlik uchun kurashi edi. Romanda XX asrning boshlarida, koreys xalqi yapon imperializmiga qarshi kurashgan va Koreya yarim orolining turli burchaklaridagi g‘alayonlar tasvirlanadi. Asosiysi, asarda “Ona yerga muhabbat” butun bo‘yi-basti bilan ifoda etiladi. Shu bois ham mazkur roman ingliz, nemis, fransuz, yapon tillariga tarjima qilinadi. Roman syujeti asosida teleserial, film suratga olinadi, opera sahnalashtiriladi. Asar umummilliy mashhurlik keltirdi. Natijada “Yer” romani YUNESKOning eng yaxshi asarlar jamlanmasi, ya’ni jahon merosidan o‘rin oldi. Pak Kyon Ni o‘z faoliyati davomida kattagina adabiy meros yarata oldi. U 30 dan ortiq roman va qissalar hamda 3 ta she’riy to‘plamlar muallifi. Uning “Qora bu qora va oq bu oq” (1956), “Ishonchsizlik davri” (1957), “1957 -yilgi Missiya” (1957) “Sevgi qo‘shig‘i” (1958), “Bekchi” (1958), “Zulmat vaqti” (1958), “Perudo” (1958), “Dorishunos Kimning qizlari” (1962), “1963-yil ortidan” (1963), “Bozor va urush maydoni” (1965), “Yashil maydon” (1965), “Yer” (1969-1994), “Mening aqlim ko‘ladi” (1994), “Moviy Galaktika” singari asarlari koreys adabiyoti xazinasidan joy oldi. U “Uoltan” mukofotiga, “Incheon” mukofotiga, “Koreya ayollar” adabiy mukofotiga sazovor bo‘ldi. Madaniyat sohasidagi xizmatlari uchun “Bogvan” ordeni hamda “Gymgvn” medali taqdim etildi. Adibaning vafotidan so‘ng 2011-yilda Thochji Madaniyat jamg‘armasi yozuvchi sharafiga Park Kenni mukofotini ta’sis etdi [7].

XX asr 60-yillarida Koreya adabiyoti uchun yangi hayot beruvchi ijodkorlarning tug‘ilishi muhim voqealardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu yangi hayot nafaqat koreya adabiyotiga balki jahon adabiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Shunday ijodkorlardan biri **Sen Kyonsuk** bo‘lib, u 1963-yilda Koreyada dehqon oilasida tavallud topadi. U Seulga kelib kechki maktabni tugatadi, shundan so‘ng Seul badiiy institutida tahsilini davom ettiradi. 1965-yilda “Qishki ertak” hikoyasi adibaning ilk debyuti edi. Ushbu asari uchun Sen Kyonsukka “Chunan” mukofoti taqdim etiladi. Uning asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilingan. 2009-yilda yaratgan “Iltimos, onamga g‘amxo‘rlik qiling” asari unga jahon arenalaridan o‘rin egallashga imkoniyat yaratdi. Adiba mazkur asari uchun Britaniyaning “Meyn” nashriyot guruhi tomonida ta’sis etilgan (Man Asian Literary Prize) mukofotiga sazovor bo‘ldi. Mazkur mukofot birinchi marotaba ayol ijodkorlarga taqdim etilishi ham Sen Kyonsuk ijodining yuqori baholanishidan dalolatdir. Adiba yuqorida qayd etilgan asarlardan tashqari “Kartoshka yeyuvchilar” (1997), “Qulupnay dalasi” (2000), “Qo‘ng‘iroq bongi” (2003) singari hikoya va qissalarni yaratish bilan bir qatorda, “Talofat” (1994), “Yolg‘iz xona” (1995), “Poyezd yettiga jo‘naydi” (1999), “I Jin” (2007), “Iltimos, onamga g‘amxo‘rlik qil” (2009), “Qayerdandir menga qo‘ng‘iroq qiladi, qo‘ng‘iroq qiladi” (2010) singari romanlar muallifi hamdir. Adiba 1995-yilda yaratilgan “Yolg‘iz xona” romani uchun 2009-yilda “Manhae Prize” xalqaro mukofotiga sazovor bo‘ladi [8].

Koreys adabiyoti vakillaridan yana biri **Kim Insuk**dir. U 1963-yilda Koreyaning Seul shahrida dunyoga keladi. 5 yoshida otasidan ajraladi, onasining qaramog‘ida qoladi. U qizlar uchun yaratilgan Chenmin o‘rta maktabini tugatganidan so‘ng Yonse universitetiga o‘qishga kiradi. O‘qib yurgan kezlari dayoq (1983-yilda) Chosun Ilbo adabiy tanlovida g‘olib chiqadi. Shundan so‘ng u Koreyaning uchta asosiy mukofotlarini ham qo‘lga kiritadi. Bular: “San” adabiy mukofori, “Dong-in” adabiy mukofoti hamda “Desan” mukofotlari edi. Adiba 30 dan ortiq asarlar yaratdi. Kim Insuk Xitoy va Avstraliyada ham istiqomat qilgan. Bu davr unga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Natijada, “Chet ellik” asari yuzaga keldi. Ushbu asar koreya adabiyoti tarixida birinchi fantastik asar sifatida e’tirof etildi. 2003-yilda “Ummon va kapalak” asari uchun “Yi Sang” adabiy mukofotiga sazovor bo‘ladi. 2010-yilda esa “Xayr, Yelina” asari uchun “Dong-in” adabiy mukofotiga sazovor bo‘ldi. Kim Insukning so‘nggi asari “Aqldan ozish” romani hisoblanadi. Adiba mazkur romansida dahshatli zilzilaning xalq hayotidagi oqibatlarini xususida so‘z yuritadi. U koreys xalqi uchun boy adabiy meros qoldirdi. “Pichoq va sevgi” (1993), “Shisha poyabzal” (1998), “Brass Bandni kutish”

(2001) singari qisqa hikoyalari hamda “Bloodline” (1983), “79 -80 qish va bahor o‘rtasida” (1987), “Uzoq yo‘l” (1995), “Gul xotirasi” (1999), “Bu ayolning tarjimai holi” (2005) “Xayr, Elena” (2009), “Sohen” (2010), “Aqldan ozish” (2011) singari romanlar muallifidir [9].

Koreys adabiyotini yuqori pog‘onaga ko‘targan adiba **Xan Kang** hisoblanadi. U ilk Sharq adabiyoti vakilalari orasida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan. Xan Kang 1970-yilda janubiy Koreyaning Cianchjou shahrida ijodkorlar oilasida tavallud topadi. Uning oila a‘zolarining barchasi adabiyot sohasi bo‘yicha faoliyat olib borganligi bois adibaning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi juda erta uyg‘onadi. Poongmoon o‘rta maktabini tugatganidan so‘ng Yonsei universitetining koreys tili va adabiyoti yo‘nalishida ta‘lim ola boshlaydi. Universitetni tugatgach 1998-yilda u Iowa Universitetining International Writing dasturi bo‘yicha tahsil oladi. Uning ijodiy faoliyati universitetni tugatgach 1993-yildan boshlandi. O‘sha yili uning beshta she‘ri, jumladan, “Seuldagi qish” she‘ri “Adabiyot va jamiyat” jurnalining 1993-yil qishki sonida chop etildi. Bir yildan so‘ng, u o‘zining ilk badiiy asarini Xan Kang-hyun taxallusi ostida yoza boshladi. Bu asar “Qizil langar” hikoyasi bo‘lib, ushbu asar unga Seoul Shinmun tomonidan o‘tkazilgan Yangi yil adabiy tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan. Uning dastlabki hikoyalar to‘plami 1995-yilda “Yeosu sevgisi” sarlavhasi ostida nashr etiladi. Mazkur to‘plam uni mahoratli adiba ekanligidan dalolat berdi. Xan Kang koreys shoirlari ijodini tinimsiz kuzatdi. Ularni o‘rgandi. Ayniqsa, koreys modernist shoiri Yi Sang she‘riyatidagi Yaponiya istilosi ostidagi Koreyaning mustamlakachilik tarixi zo‘ravonligiga qarshi mudofaa asari uning muvaffaqiyat keltirgan “Vegeterianka” asarining asosiy mavzusiga aylandi. Ozodlik, erk tushunchasi g‘oyasi asarni yanada o‘qimishlilikini ta‘minladi. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, ikkinchi qismi “Yi Sang” adabiy mukofotiga loyiq kurildi. 2016-yilda esa mazkur asar Xalqaro “Buker” mukofotiga loyiq deb topildi. Asar shu yilning o‘zidayoq “The new york times book review” tomonidan “2016-yilning eng yaxshi 10 ta kitobi” ro‘yxatiga kiritildi. Adiba 2016-yilda “Human acts” (“Inson harakatlari”) hamda 2017-yilda “Atti Umani” (“Inson harakatlari” asar davomi) romanini yaratdi. Mazkur asarlar Adelphi Edizioni tomonidan italyan tiliga tarjima qilinadi. Tarjimon tarjima uchun Premio Malaparte mukofotiga sazovor bo‘ldi. Albatta, mazkur asarlar ingliz tiliga ham tarjima qilindi. Bu asar uchun esa 2018-yilda “Xalqaro Dublin” adabiy mukofoti uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritildi.

Xan Kang 2018-yilda “Oq kitob” asarini yaratdi. Mazkur asar avtobiografik xususiyatga ega bo‘lib, opasining vafotiga bag‘ishlangan edi. Ushbu asar ham Xalqaro Buker mukofotiga taqdim etiladi. 2021-yilda u “Biz ajralmaymiz” romanini yaratdi. Asar fransuz tiliga tarjima qilindi. Natijada, asar unga 2023-yilda “Etranger Prizes” mukofotini qo‘lga kitirishga imkoniyat yaratdi. Yozuvchi bu asarida 1948-1949-yillardagi Jeju qo‘zg‘oloni va uning do‘sti oilasiga ta‘siri haqida hikoya qildi. 2023-yilda uning “Yunon tili darslari” deb nomlangan to‘rtinchi romani nashr etildi. Asar shu yilning o‘zidayoq ingliz tiliga tarjima qilindi. 2024-yilda adibaning “Vegeterianka” asari The New York Timesning “XXI asrning 100 ta eng yaxshi kitobi” ro‘yxatidan joy oldi. 2024-yilda Xan Shvetsiya akademiyasi tomonidan “tarixiy jarohatlarga qarshi turadigan va inson hayotining nozikligini ochib beruvchi nasriy she‘ri” uchun adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi [9].

Koreya adabiyoti ayollar ijodiga boy adabiyot. Adabiyotni gullashiga o‘z hissasini qo‘shgan yana bir koreys yozuvchisi **Kon Nosok** hisoblanadi. U 1963-yilda Cholla-Namdo provinsiyasidagi Kokson viloyatida tavallud topdi. Uning ham boshqa ijodkorlar singari bolaligi quvonchlarga to‘la kechgani yo‘q. Otasi katta kredit olganligi bois kredetarlardan yashirinib yashashga majbur bo‘lgan. Onasining sog‘ligi yomonlashganligi bois Kon Nosok universitet tahsilini tamomlay olmaydi. Uyidan uzoqda joylashgan zavodda ishlay boshlaydi. 1991-yilda Koreyaning mashhur adabiy jurnallaridan birida uning “Asl olov” romani nashr etiladi. Mazkur roman uni ijodkor sifatida xalqqa tanitadi. Asarda qishloqning ijtimoiy hayoti tasvir etilib, bosh qahramon ayol edi. U yaratgan obraz kambag‘al qatlamga mansub. Shu bois ham hayot uni qiyinchiliklarga tik qarashga majbur etadi. Xuddi shu kabi qahramonni ijodkorning “Bu hayot” hikoyasida ham uchratamiz.

Xullas, Koreys adabiyotida yetakchi ijodkorlar sifatida Pak Kyonri, Sen Kyonsuk, Pak In Suk, Kim Insuk, Xang Kang singari ijodkorlarni ta‘kidlash mumkin. Bu ijodkorlar nafaqat ijodi bilan, balki o‘z faoliyati bilan ham o‘rnak bo‘la olishdi va yetakchi mavqega ko‘tarilishdi. Ularning barchasining ijodida adabiyotida ayollik, sevgi, mehr va ona Vatan haqidagi asarlari bilan adabiyot maydonidan

o‘rin egallashdi. Ular adabiyotda ayollar mavqeini yuksaltiribgina qolmay, ijodkor dunyoqarashining ayollarga xos nozik tomonlarini ham ko‘rsata olisdhi. Shu bilan bir qatorda xalq va tabiat mavzusini, shuningdek, ayolning jamiyatdagi o‘rnini adabiyoyda ko‘tarib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kim Mixyon. Koreys ayollar nasri va feminizm. 김미현. 한국여성소설과페미니즘. Seul, 1996, 43 b.
2. Хван П.Ч. Женские образы в прозе А.П. Чехова: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005.
3. Ли Сан Юн. Рассказ в творчестве современных писательниц Республики Корея: Пак Вансо, Син Кёнсук и Ын Хигён. Ав. диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук, -Санкт Петербург., 2007. – С. 3
4. Ли Тыкчэ. Кабучжанчжегук сок-ый ёчжадыль. Сеул: Мунхак-ква хакса, 2004. – С. 204
5. Xalova M. Hozirgi o‘zbek ayollar she’riyatida qalb tasviri va talqini. Dissert. Filol.fan.dok. (DSc). – Samarqand, 2024, 230 b.
6. Халова, М. А. (2021). Istiqlol davri she’riyatida ayollar obrazi. Международный журнал искусство слова, 4(2).
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/vklad-zhenschin-pisatel'nits-v-rasshirenje-tematiki-koreyskoy-literatury-v-kolonialnyy-period/viewer>
8. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%B0%D0%BD_%D0%9A%D1%91%D0%BD_%D0%AD (24.11.2014 18:04 da murojaat etildi)
9. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BD_%D0%A1%D0%BE%D0%B%D0%BE%D0%BA (24.11.2024 18:08 da murojaat etildi)

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000